

## “ERTA TURMUSH QURISHNING SALBIY OQIBATLARI”



Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

**Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna**

Toshkent Amaliy Fanlar

Universiteti 3-bosqich talabasi:

**Saidaxmedova Dilnoza**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar orasida erta turmush qurishning salbiy oqibatlari va uning oldini olish masalalari yoritib berilgan. Maqola davomida qizlarni oilaga tayyorlashning psixologik omillariga va ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tilgan. 18-25 yosh o'sish va rivojlanish, o'z-o'zini kashf qilish, o'qish va o'rganish uchun eng munosib yosh hisoblanadi. Ammo ba'zi erta turmush qurgan qizlar 20 yoshda bolaschaqa, ro'zg'or tashvishlari bilan bo'lib qolib, hayotlarining eng go'zal davrini boy berishadi. Yoshlar uchun oila qurishning eng ideal davri 23-24 yosh hisoblanadi. Qizlar bu yoshda nima xohlashini yaxshi bilishadi, o'zlarini xafa qildirib qo'yishmaydi, qo'llarida kasblari bo'ladi va bu bilan o'zlarini ta'minlay oladilar va eng asosiysi, ham ma'nani, ham jismonan tayyor bo'ladilar.

**Kalit so'zlari:** Balog'at davr, erta turmush, oila, kasallik, nikoh, turmush yoshi, Homila, qonun.

Erta turmush qurgan qizlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari erta turmush qurishning asosiy sabablari ota-onaning maslahati yoki talabi (49,1%), qarindoshlarning maslahati yoki talabi hisoblanadi. Erta nikohlar ko'p hollarda ota-onalarning xohishi va talabi bilan tuzilayotganligiga oid fikrni 49,8 foiz respondent qo'llab-quvvatlagan. Ularning 17,2 foizi mazkur fikrga qarshi ovoz bergan. Respondentlarning 42,3 foiz ota-onalar farzandlarini turli nojo'ya ta'sirlardan himoya qilish maqsadida ularni erta turmushga beradilar degan fikrga to'liq qo'shilgan, 33,7 foiz qisman qo'shilgan va 16,3 foizi bu fikrga qo'shilmasligini birdirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 13-iyuldaggi KQ-105-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Erta turmush va erta tug‘ruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarni ijro etish holati o‘rganildi. O‘rganish natijalari mazkur sohada muayyan ishlar amalga oshirilganini ko‘rsatdi.

JSSTning 2012-yil 65 sessiyasida „O‘smit yoshdagi homiladorlik va ularning salbiy oqibatlari“ to‘g‘risida seminar o‘tkazildi. Erta turmush qurish muammolari ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra jahonning rivojlangan va rivojlanib borayotgan davlatlar aholisining turmush darajasi, ularda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam, turmush qurishning yosh chegarasi belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur tashkilot tomonidan erta turmush qurish va uning salbiy oqibatlari haqidagi ma’lumotlar asosida ish olib borishadi.

Sh.Mirziyayevning 2023-yil, Namanganda bo‘lib o’tgan seminarida qizlarni erta turmush qurush masalasini ham olib chiqqan. Ularning fikricha “Qizlarning matabni tugatgach yana 3 yil tahsilni davom ettirishlari maqsadga muvofiqdir. U kasb-hunar kollejlarida o‘qib, kasb-hunar egallahlarini, shunda ular boshqa oilaga boshlarini baland ko‘tarib kirib borishlarini, 19-20 yoshda erta turmushga bermasliklarini “ aytib o’tganlar.

Yangi qurilayotgan oilaning kelajagi ota-onalarning, shuningdek yoshlarning o‘zini ham qiziqtiradi. Bunday ma’suliyatli damda yuzaga kelayotgan oila kelajagi qanday bo‘lishini bilish uchun ota-onalar, bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar quyidagi nikoh oldi omillariga e’tibor berishi lozim. Nikoh oldi omillari: oilaviy hayotga yetukligi, ularning oila qurish sabablari, ularning oila qurishgunga qadar bir-birini tanishlik muddati shart-sharoitlari, ularning bo‘lg‘usi hayot haqida tasavvurlarini kiritish mumkin.

Mutaxassislar tomonidan qizlarning 16-18 yoshlarda ona bo‘lishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Ko‘p hollarda bunday yoshdagi qizlarning sog‘lom farzandni dunyoga keltirishida turli muammolar kelib chiqadi. Qizlarning jismonan va ruhan onalikka tayyor bo‘lmadan oila qurishi

ko‘pincha tug‘ruq jarayonida o‘lim xavfi ortishiga sabab bo‘ladi. Binobarin, erta homiladorlik yosh ona hamda bo‘lajak farzand uchun har tomonlama xavflidir.

Ba’zi insonlar Islom dini qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi, degan noto‘g’ri tushunchada yuradilar. Bu – asossiz gap. Islomda hali balog’atga yetmagan, turmushga tayyor bo‘lmagan o’smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo‘q. Hatto balog’atga yetgan, jismoniy tarafdan turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa, uning uylanishi shart emasligi aytildi.

#### Erta turmushning salbiy oqibatlari

Psixologik rivojlanishning to‘xtashi: Yoshlarning o‘zini anglash va shaxsiy rivojlanish jarayoni kechikishi mumkin.

Ta’lim va kasbga tayyorgarlikning cheklanishi: Erta turmush yoshlarning ta’lim olish va kasb egallash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Sog‘liq muammolari: Erta tug‘ruq va reproduktiv salomatlikka ta’siri tufayli sog‘liq muammolari yuzaga kelishi mumkin.

Oilaviy zo‘ravonlik xavfi: Erta turmushda oilaviy zo‘ravonlik holatlarining ko‘payishi mumkin.

Ijtimoiy izolyatsiya: Yoshlarning ijtimoiy faoliyatdan chetlanishi va izolyatsiya qilinishi mumkin.

Payg'ambarimiz (alayhissalom): “Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir”, deb ta'kidlaganlar (Bayhaqiy rivoyati). Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz ayol, rafiqqa, ona, beka, jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarini to'kis ado etishga qiynaladi. Yoshlar 9 yil o'rta umumta'lism maktabi, undan so'ng litsey va kollej ta'limini olishlari shart. Zero, dinimiz ta'limotlariga ko'ra ilm olish, ma'rifatli bo'lish, hayot uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni o'rganish har bir qiz bola uchun ham farzdir. Bordi-yu, shundan oldin turmush qursalar, o'qish ham chala, oila yumushlari ham, uy bekaligi va boshqa ishlar ham chala bajarilishiga yo'l ochilgan bo'ladi. Muhimi, ilmli va kasb-hunarli ayolgina farzandining komil inson bo'lishiga intiladi.

-milliy udumga ko'ra, ko'pincha kelinlarning oiladagi mavqeい past darajaga ega bo'ladi va ular ko'proq har xil oilaviy ishlarni bajaradilar. Tabiiyki 16-17 yoshli qizning jismi hali bunday og'ir ishlarni bajarishga tayyor bo'lmaydi..

-qizlar bu yoshda ma'nnaviy jihatdan ham oila munosabatlariga tayyor bo'lmaydi.

-yosh turmushga chiqqan kelinlarning shu yoshda homilador bo'lishi tos suyaklari kichkina bo'lganligi uchun xavflidir.

Respublikamizda qizlarning erta turmushga chiqishi aholining tez o'sishiga ta'sir qilibgina qolmay, halq xo'jaligining jadal rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki 18-25 yosh qizlarning bilim olishi, kasb egasi bo'lishi va mehnat qilish uchun qulay yosh hisoblanadi.

-o'z qadri, huquqlari va o'zini-o'zi himoya qilish tushunchalarini anglab etgan, jinsiy va reproduktiv madaniyati to'la shakllanmagan yosh qizlarning biron kasb-hunar egallamasdan, bilim olmasdan, mutaxassislikka ega bo'lmasdan oila qurishi ularning qaynota, qaynona va erlariga iqtisodiy jihatdan qaram holda yashashlariga sabab bo'lmoqda. Ayrim oilalarda aynan iqtisodiy qaramlik tufayli kelinlar yosh bolasi bilan kamsitilmoqda, tazyiqqa uchramoqda. Shuning uchun qizlarning biron hunar yoki mutaxassislikka ega bo'lgandan keyingina turmushga chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

- bundan tashqari o'smirlik davrida organizmda turli morfologik, fiziologik, ruhiy o'zgarishlar boshlanadi va balog'atga yaqinlashgan sari ular mujassamlashib boradi. Yosh onalarning sog'ligi ko'proq mana shu yoshda o'zgarishlarning mo'tadil ketishiga bog'liq. Aks holda bu holat keyinchalik kasalliklarninig og'ir kechishiga sabab bo'ladi.

O'smir qizlarni ham jismoniy, ham jinsiy balog'atga yetishida anchagina salbiy nuqsonlar bor, bu esa ularda o'tayotgan ko'pgina kasalliklar fiziologik jihatdan nimjon bo'lgan organizmda yuzaga kelayotganligini bildiradi. Yuqondagilarni hisobga olib, bizning sharoitda yosh qizlarning to'liq balog'atga yetishi 19-20 yoshlarga to'g'ri keladi deyish mumkin.

**Xulosa va takliflar:** Nikoh yoshi mamlakatga bog'liq va qizlar va o'g'il bolalar uchun farq qilishi mumkin. Yaqin vaqtgacha ko'plab mamlakatlarda qizlarning

turmush qurish yoshi o‘g‘il bolalarnikiga qaraganda pastroq bo‘lgan bo‘lsa, hozir ko‘p joylarda gender tengligini saqlash maqsadida qiz bolalar yoshiga ko‘tarildi. Nikoh uchun talab qilinadigan yosh va boshqa shartlar har bir mamlakatda bir-biridan farq qiladi, lekin qoida tariqasida, yosh o’n sakkiz yoshdan boshlab belgilanadi. Aksariyat mamlakatlar ota-onalarning roziligi yoki sud ruxsati bilan oldindan belgilangan yoshda turmush qurishga ruxsat beradi, ba’zi mamlakatlar esa, agar qiz homilador bo’lsa, yoshlarga turmushga chiqishga ruxsat beradi.

### Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.,ERTA TURMUSHGA CHIQISHNING OQIBATLARI.“. www.naqshband.uz. Ўзбекистон мусулмонлари идораси Бухоро вилояти вакиллиги (13 ноябр 2017 йил). Qaraldi: 15-avgust 2022-yil.
- 2.Supplementary Convention on the Abolition of Slavery, Article 2
- 3.SIXTY-FIFTH WORLD HEALTH ASSEMBLY. „Early marriages, adolescent and young pregnancies“. apps.who.int. World Hearth Organization (16-mart 2012-yil). Qaraldi: 16-avgust 2022-yil.
- 4.,„O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEksi“. www.lex.uz. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ (1998-yil 1-sentyabr). Qaraldi: 15-avgust 2022-yil.
5. „Ранние браки, разводы, конфликты и насилие. Социологи провели исследование основных проблем семейной жизни в Узбекистане“. /www.podrobno.uz. Центр изучения общественного мнения "Ижтимоий фикр" провел исследование основных проблем семейной жизни в Узбекистане. (18 мая 2021). 2022-yil 12-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 15-avgust.
6. „НИКОХЛАНУВЧИ ШАХСЛАРНИ ТИББИЙ КЎРИКДАН ЎТКАЗИШ ТҮҒРИСИДАГИ НИЗОМНИ ТАСДИКЛАШ ҲАҚИДА“. lex.uz. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ (2003-yil 25-avgust). Qaraldi: 15-avgust 2022-yil.
7. Materinskaya smertnost // 1. Malaya meditsinskaya ensiklopediya. — Meditsinskaya ensiklopediya. 1991—96 gg. 2. Pervaya meditsinskaya romoш. —

Bolshaya Rossiyskaya Ensiklopediya. 1994 g. 3. Ensiklopedicheskiy slovar meditsinskix terminov. — Sovetskaya ensiklopediya. — 1982—1984 gg. — M.